

**O'ZBEKISTONDA EKOLOGIYANI MUHOFAZA QILISH MAQSADIDA
CHIQINDILARNI KAMAYTIRISH VA QAYTA ISHLAB CHIQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Raximova Madinabonu Mujohid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti DS-61-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ekologiyani muhofaza qilish maqsadida chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish masalasi yoritiladi. Chiqindilarni saralash va qayta ishlab chiqarish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, ekologik muhitni yaxshilash va aholining ekologik ongini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, aholining ishsiz qatlamini band qilish, chiqindilarni qayta ishlashni raqamlashtirish hamda ekologik toza va arzon mahsulotlarni bozorga kiritish muhimligi haqida so'z boradi. Maqolada ekologik muammolar va ularning insoniyat hamda iqtisodiyotga ta'siri atroflicha ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, chiqindi, qayta ishlash, ekomahsulot, plastik idishlar, chiqindi boshqaruvi, xomashyo, urbanizatsiya, marketpleys, iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье освещается вопрос о сокращении выбросов и совершенствовании процессов переработки в целях защиты экологии в Узбекистане. Анализируются меры, направленные на достижение экономической эффективности путем сортировки и переработки отходов, улучшение экологической среды и повышение экологической осведомленности населения. В нем также говорится о важности занятости безработных, оцифровки переработки отходов и вывода на рынок экологически чистых и недорогих продуктов. В статье подробно рассматриваются экологические проблемы и их влияние на человечество и экономику.

Ключевые слова: экология, отходы, переработка, экопродукты, пластиковые контейнеры, Управление отходами, сырье, урбанизация, маркетплейсы, экономика.

Annotation: This article highlights the issue of reducing emissions and improving recycling processes in order to protect the environment in Uzbekistan. The measures aimed at achieving economic efficiency through waste sorting and recycling, improving the ecological environment and increasing environmental awareness of the population are analyzed. It also highlights the importance of employing the unemployed, digitizing waste recycling, and bringing environmentally friendly and inexpensive products to market. The article examines in detail environmental problems and their impact on humanity and the economy.

Keywords: ecology, waste, recycling, eco-products, plastic containers, waste management, raw materials, urbanization, marketplaces, economy.

Kirish. Ekologiya va insoniyat bir butun tushuncha bo'lib, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biroq oxirgi yillarda inson faoliyatining tabiatga ta'siri sezilarli darajada oshib,

global ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda ham qattiq maishiy chiqindilar muammosi dolzARB masalalardan biri bo'lib, ularni to'g'ri boshqarish tizimini yo'lga qo'yish zarurati mavjud.

Aholining xarid qobiliyati oshishi va urbanizatsiya jarayonlari natijasida qadoqlangan mahsulotlar iste'moli ortib, chiqindilar miqdori ko'paymoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bir kishiga to'g'ri keladigan qattiq chiqindilar miqdori yiliga o'rtacha 240–328,5 kg ni tashkil etadi. Shuningdek, chiqindilarning noto'g'ri boshqarilishi toza ichimlik suvi, tuproq va havoning ifloslanishiga olib kelmoqda.

Maqolada ekologik muammolarning oldini olish uchun chiqindilarni qayta ishslash va undan samarali foydalanishning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarning tajribasi tahlil qilinib, O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash jarayonlarini takomillashtirishga oid takliflar ilgari suriladi.

- Chiqindilarning ekologiyaga ta'siri va global muammo.

Hozirgi vaqtida chiqindilar tabiatga jiddiy zarar yetkazmoqda. Masalan, shisha butilkalar 1 million yil, plastik idishlar 450 yil, alyuminiy konserva bankalari esa 80–200 yil davomida chiriydi. Plastik ishlab chiqarish esa jahon neft iste'molining 20 foizini tashkil qiladi va bu ko'rsatkich 2050-yilga kelib yanada ortishi kutilmoqda.

Agar chiqindilar to'g'ri boshqarilmasa, ularning atrof-muhitga zararli ta'siri kuchayadi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda qadoqlash mahsulotlari hajmi oxirgi 20 yil ichida 246 barobarga oshgan. Plastik chiqindilarni noto'g'ri yo'q qilish natijasida ular havoni, tuproq va suvni zaharlaydi.

- Xorijiy mamlakatlar tajribasi

Ko'plab rivojlangan davlatlarda chiqindilarni qayta ishslash va ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha samarali tizimlar joriy qilingan:

Germaniya 1980-yillardan boshlab chiqindilarni alohida yig'ish tizimini yo'lga qo'ygan. Bugungi kunda ushbu mamlakatda chiqindilarning 66% qayta ishlanadi. Plastik, shisha, qog'oz va organik chiqindilar maxsus rangli idishlarga ajratib tashlanadi.

Yaponiya plastmassani qayta ishslash bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. 1997-yilda qabul qilingan qonun asosida sanoat va maishiy chiqindilarni saralash majburiy tartibga keltirilgan. Bugungi kunda mamlakatda plastmassaning 83% qayta ishlanadi.

Rossiya 2012-yilda chiqindilarni saralash tajribasini o'tkazdi. Ko'p qavatli uylar oldida qog'oz, plastmassa va metall chiqindilarni yig'ish uchun shaffof idishlar o'rnatildi. Ushbu tajriba samarali natija bergenligi sababli butun mamlakat bo'ylab joriy qilindi.

Filippin 2000-yilda chiqindilarni ekologik boshqarish bo'yicha qonun qabul qildi. Ushbu qonun asosida ochiq chiqindixonalar taqilganib, barcha chiqindilar qayta ishlashga yo'naltirildi.

O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash va ularning iqtisodiyotga foydasi

2019-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash bilan shug'ullanuvchi 183 ta korxona mavjud bo'lib, ularning umumiyligi quvvati yiliga 894 ming tonnani tashkil etadi. Biroq, bu ko'rsatkich Fransiyadagi 2,3 million tonna quvvatga ega 300 dan ortiq korxona bilan solishtirilganda ancha past.

Hozirgi kunda chiqindilarni qayta ishlash quyidagi foydalarni beradi:

- Ekologik muhit yaxshilanadi – chiqindilar tabiatga zarar yetkazmaydi.
- Ishsizlik kamayadi – qayta ishlash korxonalarining ko‘payishi yangi ish o‘rinlarini yaratadi.
- Iqtisodiy samaradorlik oshadi – qayta ishlangan chiqindilardan arzon xomashyo sifatida foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.
- Arzon va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati – plastik va matolarni qayta ishlab, eko-mahsulotlar yaratish mumkin.

Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash bo‘yicha takliflar

O‘zbekistonda ekologik muammolarni hal qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- Chiqindilarni xarid qilish qobiliyatiga ega elektron pul birligiga (buning uchun maxsus dastur tuziladi) aylantirish tizimini yaratish – Germaniyadagi plastik idishlarni topshirganda xarid qilish qobiliyatiga ega chek chiqaruvchi apparatlar tajribasidan foydalanib, plastik, qog‘oz, shisha va matolarni topshirish orqali QR-kodli chek olish tizimini joriy qilish. Bu turdagи chek orqali savdo shaxobchalaridan maxsulot olishlari mumkin bo‘ladi. Albatta savdo shaxobchalari bilan shartnoma qilinadi.
- Qayta ishlangan mahsulotlar bozori (marketpleys)ni yaratish – ekologik toza mahsulotlar uchun maxsus onlayn bozor yaratish.
- Ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish – aholining ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish va qayta ishlash bo‘yicha tanlovlар o‘tkazish.
- Ekologik ma’rifatni oshirish – ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim muassasalari orqali aholining ekologik savodxonligini oshirish.

Xulosa

Bugungi kunda O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda chiqindilarni qayta ishlash va ekologik muhitni yaxshilash mumkin. Chiqindilarni qayta ishlash nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy samaradorlik va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. https://www.uz.emb-japan.go.jp/itpr_uz/openingceremonymuseum.html
2. <https://www.similarweb.com/ru/top-websites/germany/science-and-education/environmental-science/>
3. <https://eco.gov.uz/uz/site/news?id=3671>
4. <https://engoo.ru/app/lessons/discussing-environmental-problems-and-solutions/>